



NON ISHLAB CHIQARISH KORXONASI ISHCHILARINI OVQATLANISHINI GIGIYENIK ASOSLASH

Ortiqov B.B
Omonov J.P

Mavzuning dolzarbli. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT, 2019) ma'lumotlariga ko'ra, har yili 2 milliondan ko'prtoq ishchilar ishlab chiqarishning xafv omillari ta'sir natijasida nobud bo'lishi va 160 million ishchilarda kasbiy patologik holatlar paydo bo'lishi aniqlangan.

Xodimlarning mehnat qilish sharoiti ularning yuqori ishlash qobiliyatini ta'minlash, salomatlik ko'rsatkichlari va ruxiy holati hamda kun tartibi va turmush tarziga ko'rsatadigan ta'siri sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning maqsadi. Non ishlab chiqarish korxonasi ishchilarning haqiqiy ovqatlanish holatini gigiyenik optimallashtirishdan iborat. Ushbu maqsadga erish uchun quydagi vazifalar belgilab olindi: non ishlab chiqarish korxonasi ishchilarida ovqatlanish holatining gigiyenik ahamiyati, non ishlab chiqarish korxonasi ishchilarini kunlik ratsionini gigiyenik jihatdan tahlil qilish, tadqiqot natijasiga ko'ra tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqotning obyekti: Toshkent shahrining Chilonzor tumanida «HIKMATLI NON MCHJ» va Olmazor tumanida joylashgan «ATB RIZQ BARAKA MCHJ»-korxonalarida faoliyat yuritayotgan 58 nafar ishchilar olingan. Tadqiqot quydagi usullaridan foydalanilgan: Anketa-so'rovnama, analistik, sanitari-gigiyenik, va statistik qayta ishlov berish. Olingan natijalar. Taqdidotda olingan natijalari SanNvaQ 0007-20 meyoriy hujjat bilan solishtirma tahlil o'tkazilgan. Non ishlab chiqarish korxonasi ishchilarning kunlik ovqatlanish ratsioni tarkibida fiziologik meyoriy ko'rsatkichdan sezilarli farq qiluvchi mahsulotlarga e'tibor qaratilgan. Ishchilarning kunlik ovqatlanish ratsionida non va non mahsulotlari 28% ga, shakar 40% ga, makaron 32,7% ga va kartoshka 12,8% ga ortiqcha istemol qilingan bo'lsa, Ba'zi bir mahsulotlar esa meyordan kam istemol qilinganligi ya'ni sut mahsulotlari 20 gr, o'simlik moyi 5gr, umumiy sabzavotlar miqdori esa 14 gr ga kam ekanligi aniqlandi. Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi oqsil, yog' va uglevodlarning o'zoro nisbatida uglevodlar yilning sovuq(qish 1:1:5,3 va bahor 1:1:5,6) va issiq mavsumlari(yoz-1:1:5,5 va kuz- 1:1,1:6)da xam meyoriy nisbatdan ortqicha ekanligi aniqlandi (San N va Q 0007-20. me'yor 1:0,95:4,7)

Xulosa: Non ishlab chiqarish korxonasi ishchilarning kunlik rasioni tarkibidagi asosiy makronutriyentlarning o'zaro nisbati gigiyenik talablarga javob bermaydi. Ishchilarning kunlik rasionidagi non, makaron, guruch, shakar va kartoshka maxsulotlarining miqdori meyoriy darajadan yuqori ekanligi aniqlandi. Organizm uchun zarur xisoblangan makro hamda mikronutriyentlar saqlovchi sut va sut mahsulotlari, sabzavot (sabzi, bodring, pomidor)lar istemol darjasini meyoriy ko'rsatkichlarga nisbatan kam ekanligi aniqlandi. Yuqorida qayt etilgan holat noqulay ishlab chiqarish sharoitida ishlovchi ishchilarning salomatlik holatini izdan chiqishi va kasbiy bog'liq xastaliklarning uchrashiga sabab bo'lishi mumkin.